

**TASVIRIY SAN'AT ASARLARIDA KLASSIK REALIZMINING  
XUSUSIYATLARI**

*Qayumov Suxrob Sobirovich,  
Kamoliddin Behzod nomidagi  
milliy rassomlik va dizayn instituti  
tel: +998339009387  
[sukhrob.86@icloud.com](mailto:sukhrob.86@icloud.com)*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Tasviriy san'at asarlarida klassik realizmining xususiyatining tutgan urni haqida o'ziga xos jihatlari haqida fikr yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *San'at, davr, portret, janr, dasgohli rangtasvir, plastic, rang-baranglik,*

"San'ni baxolash mezonini kechinmalari ijodkorning shaxsiy uy va belgilay boshladi. Mustakillik yillari rassomlik san'atining mavzusi kengaydi. Eng avvalo, milliy tarix bilan bog'liq voqealar kupchilik rassomlarni uziga jalb etdi."

Milliy suverenitetga erishgan yangi mamlakatning davlatchilik tarixi, boy madaniy merosini targ'ib kilish rangtasvir ijodkorlari oldidagi etakchi vazifalardan biri sifatida belgilandi. Yuqoridagi jarayon tabiiy xarakterga ega bo'lib, tasviriy san'at asarlarida klassik realizmining uziga hos xususiyatlarini qayta anglash rangtasvir ijodkorlari uchun muhim edi. Mazkur tendensiya mintaqaviy harakterga ega ekanini xisobga olish zarur. Mutaxassislar xaqli ravishda belgilab utganidek, 90-yillar rangtasviridagi muhim yangiliklardan biri "tarixiy-vatanparvarlik mavzusi bilan bog'lik bo'lib, tarixiy kartina va tarixiy portret yunalishlarining rivojlanishi uchun yangi impuls berdi. Xar bir respublikada tarixiy arboblal, shoir va faylasuflarning portretlari galereyasi yuzaga keldi."

Tasviriy san'at asarlarida klassik realizm yani, realistik yondashuv asosiy urin egalladi. Tasviriy san'at asarlarida yaratilgan deyarli barcha asarlarda klassik

realizmining ma'lum darajadagi tavsirini kurish mumkin.

Mustakillik yillarida ijodiy etuklikka erishgan rassomlardan biri A.Ikromjonovning asarlari xamda obrazli portretlarida realizm tushunchasiga keng munosabat mavjud. A.Ikromjonov tomonidan yaratilgan portretlar turkumida xam Evropa realizmiga xos xakkoniylik ustuvor axamiyatga ega. Klassik realizm antanalarining yorqin ifodasini "Mirzo Ulugbek" portretida kuramiz. Musavvir izlanishlariga, ayniksa, XVI-XVI golland rangtasviri kuchli tasir kursatgani seziladi.

Evropa realizmi bilan uyg'unlik temuriy xukmdor siymosining chuqur psixologik tasvirida yaqqol aks etadi. qaxramon nigoxlariga aloxida urg'u bergan A. Ikromjonov Mirzo Ulugbek qiyofasida Amir Temurning ramziy siymosini uyg'unlashtiradi. Golland rangtasvirining tasiri portretning koloristik echimida xam kurinadi. Misol uchun "Amir Temur" (2002) portretida buyuk sarkardaning xashamatli libosi, qimmatbaxo javoxirlar bilan bezatilgan qurol-yarogini aks ettirishda obrazning xaqqoniy, psixologik kechinmalari ham xisobga olingan.

Klassik an'analar rivojining muhim yunalishlaridan biri batal janri bilan uzviy bog'lik. Mustakillik yillariga qadar o'zbek rangtasvirida jiddiy axamiyat kasb etmagan ushbu janr an'alariga murojaat Alisher Aliqulov ijodida salmoqli o'ringa ega.

Yirik monumental "Amir Temurning Tuxtamishxon ustidan qozongan g'alabasi"(1996) nomli asari kompozitsion murakkabligi bilan ajraladi. Obrazlarning uta zich joylashuvi makondan maksimal darajada unumli foydalanishni talab etadi. Alisher Aliqulov uchun bu borada, polyak rassomi Yan Mateyko ijodi uziga hos namuna sifatida xizmat qiladi. Mateykoning batal kartinalarida kuzatilganidek, Alisher Aliqulov ham asosiy e'tiborni voqealarning kulami va dinamikasini tasvirlashga qaratadi. Alisher Aliqulov ijodiy izlanishlarining keng kulamini belgilovchi hususiyatlardan biri shundaki, ularda antik davr an'alariga ham murojaat mavjud. «Qadimiy Baktriyadagi sport uyinlari" (1996) mahobatli asarida rassom antik an'analarning o'ziga xos talqinini yaratadi. Antik san'at Markaziy Osiyo qadimiy madaniyatida salmoqli o'ringa ega ekanini xisobga olgan rassom Shark va G'arb an'alarining o'ziga hos sintezini

amalga oshiradi. Devoriy suratning birinchi planida baktiriyalik sportchilarning siymolari aks etib, ular barchasi sharkona libosda namoyon bo'ladi. Rassom izlanishlari o'zbek rangtasvirida batal janrini rivojlantirish imkonini bergani bilan ahamiyatlidir. "Qadimiy baktiriyada sport o'yinlari" asari(1996) Olimpiya shon-shuxrati muzeyida, "Dunyo xalqlari ertaklari" (1997) Yosh tomoshabinlar teatrida, "O'zbekistonnig buyuk siymolari" (1998) Toshkent shaxar Kapital qurilish bosh boshqarmasi, "Xalq kuzgalonlari va Jadidchilik xarakatlari" va "Amir Temur Jaxon tarixida" asarlari O'zbekiston tarixi muzeylariga yanada mazmun bagishlamokda. SHuningdek, Ozarbayjon, Turkiya, Misr, Makedoniya, AKSH va boshka shu kabi davlatlarda bulgan kurgazmalarda asarlari namoyish etilgan.

Klassik realizmi hamda renessans freskasi B.Jalolov ijodiy izlanishlarida xam salmoqli O'ringa ega. Buni "Abadiyat gumbazi ostida" (1995) mahobatli asarida kurish mumkin. Asar markazida ot mingan Amir Temur siymosi gavdalanadi. B. Jalolov mustakillik yillarida shakllangan sxematik yondashuvdan chetlashib, buyuk sarkardani o'ziga hos qiyofada, yangi obrazli-stilistik echimlardan foydalangan xolda aks ettiradi. Devoriy suratda O'zbekiston tarixining turli davrlaridagi qaxramonlar obrazi xam joy olgan. Rassom kuplab qaxramonlar obrazidan foydalangan bo'lishiga qaramay, umumiy kompozitsiyasida ularning barchasi uzaro uyg'unlik hosil qiladi.

Klassik an'analar tarixiy mavzudagi. rivojining muhim yunalishlaridan biri batal janri bilan uzviy bog'lik. 1970-80 illarda Renessans an'alarining chuqur tasirini boshdan kechirgan J. Umarbekov bu borada tuplagan tajribalaridan mustaqillik davrida ham keng foydalanadi. Rassom ijodida Temuriylar tarixiga bagishlangan aloxida asarlar sikli mavjud bo'lib, ular orasida, ayniqsa, "Etti iqlim sultoni" (1995) tarixiy kompozitsiyasining monumental hususiyatlari e'tiborni jalb etadi. Renessans freskalariga hos ravishda J.Umarbekov kartinani gorizontal markazlashgan kompozitsiya asosida yaratadi.

Amir Temur siymosi kartina markazida gadalanib, uning atrofida uzaro uygunlikda boshka obrazlar aks ettiriladi. J.Umarbekovning tanqidiy nigohi mahobatli asarlarga hos bulgan ulug'vor manzarani aks ettirish imkonini beradi.

Rassom buyuk sarkarda atrofida Shark va G'arb tarixiga oid turli kaxramonlar siymosini aks ettiradi. Bu orqali rassom "Etti iqlim sultoni" g'oyasini tasdiqlagan xolda Amir Temur O'zbekiston tarixidagi eng yorqin siymo ekanini namoyish eta oladi. J.Umarbekov Germaniya (1980,1986,1991), Yaponiya, Quvayt, Turkiya, AQSH kabi mamlakatlardagi kurgazmalarda asarlari bilan ishtirok etgan. Albatta bu o'zbek xalkining faxri va iftixori hisoblanadi.

Biroq, ayrim bugungi ijodkorlar asarlarida klassik realizmga hos tasvir texnikasini mukammal o'zlashtirish borasida muammolar mavjudligi xammamizga ma'lum. Ayrim yosh ijodkorlarimizda murakkab tasvirlarga boy yirik jang sahnalarining realistik kurinishini yaratishda mazkur kamchilik yaqqol aks etadi. Mashxur batal ustalari kabi keng kulamli voqealarni tasvirlashga intilishsada, ularga kup hollarda tabiiylik, shakllar garmoniyasi hamda yaxlitlik etishmaydi. Klassik ananalarga yuzaki munosabat mavjud bo'lib, tarixiy mavzudagi asarlarning badiiy jixatdan sayozlashuvi, sxematik yondashuvlarning kupayishiga turtki berdi.

Klassik an'analar rivojini tahlil qilar ekanmiz, mazkur jarayonda tarixiy mavzudagi asarlar ham salmoqli o'rin egallashini talkidlash lozim. Tarixiy mavzu rivoji siyosiy-mafkuraviy ahamiyatga ega bo'lsada, klassik an'tanalarga murojaat har bir rassomda erkin kechdi. Ijodiy izlanishlar ayni paytda "klassika" tushunchasining kengayishiga ham turtki berdi. Mavjud muammolar esa izlanishlarni davom ettirishni, klassik ananalarni yanada chuqur anglashni talab etadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Abdullaev N.A. O'zbekiston Milliy portret sanati. -Toshkent: 2011.
2. Veymarn B. Iskusstvo Sredney Azii. M. - L., «Iskusstvo», 1940.
3. Maxmudov T. XX asr san'atida realizm. – San'at, 1999/1-son.
4. Xakimov A.A 1920-1980 yillar O'zbekiston san'ati. — **San'at** 1999yil/4son.